

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTABGACHA TA'LIM  
TASHKILOTLARIGA QAMRAB OLIHNING AHAMIYATI  
THE IMPORTANCE OF ENROLLING PRESCHOOLERS IN  
PRESCHOOL  
ВАЖНОСТЬ ЗАЧИСЛЕНИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ В ДОШКОЛЬНЫЕ  
УЧРЕЖДЕНИЯ**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktab yoshigacha bo'lgan bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olish, bilimli, intellektual salohiyatli, aqlan etuk, jismonan barkamol avlodni shakllantirish, malakali kadrlarni tayyorlashning maqsad va vazifalari yoritilgan.

**Annotation:** This article describes the goals and objectives of the coverage of preschool children in preschool education, the formation of an educated, intellectually gifted, mentally mature, physically fit generation, the training of qualified personnel.

**Аннотации:** В статье описаны цели и задачи охвата дошкольников дошкольным образованием, формирование образованного, интеллектуально одаренного, умственно зрелого, физически здорового поколения, подготовка квалифицированных кадров.

**Kalit so'zlar:** pedagogik texnologiya, rekonstruksiya , barkamol shaxs, ko'p bolali oilalar, dunyoqarash, modernizatsiya, o'quv-metodik qo'llanma, raqobarbardosh kadrlar.

**Keywords:** Pedagogical technology, reconstruction, harmoniously developed personality, large families, worldview, modernization, teaching aids, competitive personnel.

**Ключевые слова:** Педагогическая технология, реконструкция, гармонично развитая личность, многодетность, мировоззрение, модернизация, учебные пособия, конкурентоспособные кадры.

**Mirazimova Muxabbat Normatovna-o'qituvchi  
Nizomova Gulmira Yodgor qizi- talaba**

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimi doirasida ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismonan barkamol avlodni shakllantirish, malakali kadrlarni tayyorlash muhim va dolzarb vazifalardan biridir.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning Respublikamiz ravnaqi yo'lida olib borayotgan tinchliksevarlik, xalqparvarlik siyosati barcha sohalar bilan birga maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tubdan isloh qilish, ularni rekonstruksiya dan chiqarish, ta'lim sifatini oshirish, raqobarbardosh kadrlarni tayyorlash uchun ustuvor zamin bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda gi 2707-son "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori, 2017 yil 9 sentyabrda gi 3261-son "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish chora tadbirlari to'g'risida" gi Qarori, 2017 yil 30 sentyabrda gi 5198-son "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmonlari hamda mazkur sohaga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish ayni paytda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish uchun dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Mazkur sohadagi islohotlar izchil davom ettirilib, hozirgi zamon talablari va standartlari asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini rivojlantirish, ularni qaytadan rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga qaratilayotgan e'tiborlar zamirida ham kelajagimiz egalarining hech kimdan kam bo'lmay ulg'ayishlari hamda buyuk ajdodlarga munosib voris bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlashdek ezgu maqsadlar mujassamdir.

Kelgusi besh-o'n yillikda hamma maktabgacha ta'lim tashkilotining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, jumladan, chekka-chekka qishloqlarda yangi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish, ularni zamonaviy talablarga javob beradigan o'quv-metodik qo'llanmalar, multimedia resurslari, inventar va uskunalari bilan ta'minlash hamda ushbu maqsadlar uchun juda katta mablag'lar ajratilishi ko'zda tutilayotgani ushbu qaror o'z ichiga nechog'lik keng ko'lamlı vazifalarni qamrab olganligini ko'rsatadi.

Haqiqatan ham, bugungi kunda qishloq joylarida maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini keskin oshirish zarurati ko'rinmoqda. Ayrim qishloq sharoitida yashaydigan yosh onalar uchun bolalar bog'chasi masalasi hayotiy ehtiyojga aylangan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maqsadi maktab yoshigacha bo'lgan bolalarning umumiy savodini chiqarish, bolalarda Vatanni sevish, u bilan g'ururlanish hissini uyg'otish, Konstitutsiyani o'rgatish, dunyoqarashini kengaytirish imkonini berayotgan bo'lsa, yana bir tomoni yosh bolali onalarning mehnat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqini ro'yobga chiqarishga ham xizmat qilish. Ushbu qarorning yana bir qulaylik tomoni shundaki, qishloq joylardagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar badal to'lovini 30 foizgacha kamaytirish nazarda tutilayotgani kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalar uchun yengillik yaratadi.

Ayni shu omillarni inobatga olgan holda qarorda maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish o'quv reja va dasturlarini zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlarni inobatga olgan holda takomillashtirish vazifasi belgilangani ayni muddaodir. Bugungi kun talablaridan yana biri shundaki farzandlarimizning har tomonlama axloqiy, intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadini qo'ygan ekanmiz, shubhasiz, pedagog-tarbiyachilarning malakasini oshirish, zamonaviy talablar darajasida takomillashtirish hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini psixolog, defektolog kabi mutaxassislar bilan ta'minlashdir.

Yana muhim vazifalardan biri shundaki maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olinmagan bolalarni maktabga tayyorlashda qisqa muddatli tayyorlov guruhlarining roli muhim sanaladi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanib, u bolaning sog'lom, etuk, barkamol shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otadi, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish,

ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va yetuk shaxs bo‘lib shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. PQ-4312-son 08.05.2019. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi.
2. 2016 yil 29 dekabrda 2707-son “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
3. 2017 yil 9 sentyabrda 3261-son “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
4. 2017 yil 30 sentyabrda 5198-son “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
5. Muxabbat Normatovna Mirazimova **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA GIMNASTIKA MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH USULLARI** // Academic research in educational sciences. 2021. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-bolalarda-gimnastika-mashg-ulotlarini-tashkil-etish-usullari> (дата обращения: 01.12.2021).
6. Mirazimova Muxabbat Normatovna Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish va maktab ta’limiga tayyorlash//Международная конференция Академических наук. 2021/10//Россия.
7. Mirazimova M.N. Umumrivojlantiruvchi gimnastikaning ilmiy-nazariy asoslari// **ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723.**
8. M.N.Mirazimova.Maktabgacha yoshdagi bolalarda gimnastika mashg'ulotlarini tashkil etish usullari// Актуальные вызовы современной науки. Сборник научных трудов. Выпуск 6(60). 2021/7/26.